

ABDULLA AVLONIY HAYOT YO'LI VA ASARLARINING MA'NAVYI-TARBIYAVIY AHAMIYATI

Adxamova Oltinoy Rafiqjon qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Tasviriy sanat yo'nalishi
1-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14784393>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlar ma'naviy barqarorligini taminlashda Abdulla Avloniyning ma'naviy merosi haqida ma'lumot berish va talabalarni axloqiy tarbiyalashda Abdulla Avloniy pedagogik merosining imkoniyatlari masalasi yoritib berilgan. Abdulla Avloniyning ko'plab tarbiyaga oid asarlaridagi uning qarashlari va ulardan bugungi kunda yoshlar tarbiyasiga ta'sir imkoniyatlari haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: tarix, vatan, ozodlik, jamiyat, beqarorlik, barqarorlik, jadid, maktab, ma'naviy barkarorli, madaniyat.

ЖИЗНЕННЫЙ ОБРАЗ АБДУЛЛЫ АВЛОНИ И ЕГО ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ В ЕГО ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Аннотация. Данная статья проливает свет на возможности педагогического наследия Абдуллы Авлони в обеспечении нравственной устойчивости молодежи и предоставлении информации о духовном наследии Абдуллы Авлони в нравственном воспитании учащихся. Многие работы Абдуллы Авлони по образованию рассказывают о его взглядах и их влиянии на образование современной молодежи.

Ключевые слова: история, Родина, свобода, общество, нестабильность, стабильность, современность, школа, нравственная устойчивость, культура.

THE LIFE WAY OF ABDULLA AVLONI AND ITS EDUCATIONAL SIGNIFICANCE IN HIS WORKS

Abstract. This article sheds light on the possibilities of Abdulla Avloni's pedagogical legacy in providing moral stability of young people and providing information about the spiritual heritage of Abdulla Avloni in moral education of students. Many of Abdulla Avloni's works on education talk about his views and their influence on the education of young people today.

Key words: history, homeland, freedom, society, instability, stability, modernity, school, moral stability, culture.

KIRISH.

O'zbek pedagogikasi tarixida yangi usul maktabi tarafdorlari harakati, ularning boy pedagogik merosi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunda shubhasiz, Abdulla Avloniyning pedagogik asarlari o'ziga xos o'ringa ega.

Uning “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Adabiyot”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Uchinchi muallim”, “Hisob”, “Tarixi anbiyo”, “Maktab jug‘rofiyasi” kabi darslik-lari; “Pinak”, “Advokatlik osonmi?”, “Biz va siz” kabi dramalari Turkiston o‘lkasi xalqlari o‘rtasida ma’lum va mashhur bo‘lgan. Avloniyning yuqorida ta’kidlab o‘tilgan darsliklarining ba’zilar bir necha marta nashr qilingan bo‘lsa, ba’zilar qo‘lyozma holicha qolib ketgan. Abdulla Avloniy darsliklaridagi badiiy matnlar talabalarga ta’lim berish bilan birga tarbiya, asosan, axloqiy tarbiya berishda muhim ahamiyatga ega. Axloqqa Avloniy quyidagicha ta’rif beradi: “Insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur».

O‘tmish tariximizga nazar soladigan bo‘lsak, o‘zbek xalqi asrlar mobaynida o‘z mustaqilligiga erishish uchun kurashib keldi. Bunday harakatlarga vatanparvar ulug‘ ajdodlarimiz rahbarlik qilishdi. Millati, o‘z xalqi erkinligi yo‘lida aziz jonlaridan kechdilar. XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, xalq ozodlik kurashlari demokratik tus oldi. Rossiyada 1905, 1907 va 1917 yillarda ro‘y bergan voqealardan keyin demokratik harakat boshiga jadidlar (arabcha jadid so‘zi – yangi ma’nosiga anglatadi) chiqdi. Afsuski, Rossiyada bo‘lgan 1917 yil oktabr to‘ntarishdan kutilgan natijaga erishilmadi. O‘zbek xalqi sovet imperiyasi asoratiga tushdi. Milliy ozodlik harakati boshida turgan ziyolilar qatag‘on etildi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, jadidchilik harakati va uning namoyondalari nomiga yopishtirilgan tavqi la’nat va soxta yorliqlar olib tashlanib, ularning asl nomlari qayta tiklanib ularga xurmat-ehtirom munosabati bilan Yunus-obod tumanida “Xotira majmui” bunyod etildi. Yoshlarimiz qalbida abadiy yashaydi.

XIX asr oxiri va XX asr boshidagi o‘zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri ma’rifatparvar shoir, dramatur, jurnalist, olim, davlat va jamoat 97 arbobi Abdulla Avloniydir. XX asr boshlarida Avloniy jadidchilik harakatiga qo‘shilib, Toshkentdagi jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri bo‘lib tanildi. Abdulla Avloniyning fikricha, insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi narsa axloq tarbiyasidir. Abdulla Avloniy inson xulqini ikkiga: yaxshi va yomon xulqlarga bo‘ladi: “Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo‘lmishlar: agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni odat qilsa, yaxshilikka tavsif bo‘lub, “yaxshi xulq”; agar tarbiyasiz o‘sub, yomon ishlarni ishlaydurgon bo‘lub ketsa, yomonlikka tavsif bo‘lub, “yomon xulq” deb atalur”. Abdulla Avloniydan axloqiy tarbiyaga oid boy pedagogik meros qolgan. Biz ilmiy-tadqiqot ishimizning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, uning she’r va hikoya-laridan talabalarni axloqiy tarbiyalash imkoniyatlariga ko‘ra quyidagi yo‘nalishlarga ajratdik: –vatan, vatanparvarlik; – do‘stlik, o‘rtoqlik; –rostgo‘ylik; –ustoz, ota-ona va qavm-u qarindoshlarga hurmat; – ilm-u ma’rifatga da’vat; –sabr, qanoat; –saxovat. Vatan, vatanparvarlik haqidagi she’r va hikoyalar. XX asr boshlarida vatan, vatanparvarlik haqida ko‘plab badiiy hamda pedagogik asarlar yozildi.

Bular ichida Abdulla Avloniyning vatan, vatanparvarlik haqidagi merosi o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, u hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Abdulla Avloniyning 1912 yilda nashr qilingan "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida vatan, vatanparvarlik, o'z yurtiga sadoqat va sodiqlik haqidagi "Vatanni suymak" bobida shunday 85 yozadi: "Har bir kishining tug'ulub o'skan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ulgan, o'sgan yerini jonidan ortiq suyar...Biz turkistonliklar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suydigimiz kabi arablar Arabistonlarini, qumlik, issig' cho'llarini, eskimo'lar-shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o'z vatanlarin tashlab, hijrat qilurlar edi". Talabalarni axloqiy tarbiyalashda Abdulla Avloniyning "Bahor", "Yoz", "Kuz", "Qish" she'rlari; o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda esa "Vatan" hamda "Hijron so'zi" she'rlari, ayniqsa, diqqatga sazovor. Dramaturg A. Avloniy o'zbek milliy madaniyatining atoqli namoyandasi sifatida mahalli teatr sanati tamal toshi qo'ygan. U jaholat, bid'at, bilimsizlik oqibatida ko'plab illatlarni qoralaydi. Bu illatlardan qutulish, bartaraf etish orqali millatning yorug'likka chiqarishini, oxir-oqibat shavinizm goyasiga, mustamlakachilik zulmidan halos bo'lib, ozodlikka, chiqarishni ko'zlaydi. A. Avloniy Turkistonda dastlabki teatr trupasi tashkil etishda faol ishtirok etib, sahnaga qo'yish uchun "Advokatlik osonmi?", "Pinak", "Biz va Siz", "Portugaliya inqilobi", "Layli va Majnun", "Ikki muhabbat", "To'y", "O'liklar" kabi dramalar yozdi. Shuningdek, truppa uchun teatr, Ozarbayjon tillarida bir necha kichik sahna asarlarini tarjima qilib beradi. Avloniy ijodi 60- yillarning ohirlaridan o'rganila boshlandi. Hozirda uning turli janrlardagi asarlaridan namunalar alohida kitoblár holidan chop etilgan. Marifatparvar shoir Abdulla Avloniy adabiy merosida she'riy asarlarida ikki qalbning bir-biriga sevgi izhori emas, balki Vatanga, xalqiga, millatiga cheksiz muhabbat goyasi o'rin olgan.

Uning fikricha, har bir inson qalbida Vatanga bo'lgan muhabbati jo'sh urib turishi, Vatan, millat ravnaqi yo'lida kurashish lozimligini uqtiradi. U "har bir millatning dunyoda borlig'ini kursatadug'on oynayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdir" – deydi. Buyuk marifatparvar bobomiz o'z zamonasida "axloq", "xulq", "tarbiya" ga juda katta e'tibor berganlar. Ular tomonidan yozilgan asarlarda tarbiya millat uchun hayot-mamot masalasi ekanini o'rtaga qo'yib, yoshlarni ma'naviy barqarorligini ta'minlashda tarbiyaning nechog'lik muhim ekanligini uqtirib o'tadilar. "Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo nazhot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir". Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish o'sib kelayotgan yosh -avlodni tarbiyalash muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

O'quvchilarga ta'limtarbiya berish jarayonida buyuk alloma va yozuvchilarmzni ibrat qilib ko'rsatishim ularni asarlaridagi tarbiyaviy fikrlarini uqtirishimiz va o'zimiz hayotda qo'llashimiz haqida tushuntirib uqtirib borishimiz darkor. Jumladan, buyuk shoir, yozuvchi, dramaturg, pedagog, jurnalist va xalq arbobi, o'zbek madaniyati va adabiyotining asoschilaridan

biri Abdulla Avloniy. Abdulla Avloniy o'zbek pedagogikasi, dramaturgiyasi, milliy teatri, jurnalistikasi, bolalar adabiyotini yangi darajaga olib chiqqan. Abdulla Avloniy - milliy uyg'onish davri o'zbek pedagogikasining asoschisi. Avloniy haqida so'z ketar ekan o'zbek pedagogikasining zabardast asoschilaridan biri bo'lgan. Avloniy kambag'al oilada tug'ilgan bo'lsada o'sha davrdagi muhit og'ir bo'lishiga qaramay izlanishdan to'xtamagan va ko'plab asarlar yozib qoldirgan. Avloniyni yozgan asarlarini, pedagogika sohasiga qo'shgan hissalarini va erishgan yutuqlarini aytib o'tishni lozim ko'rdim. Avloniy hayoti davomida ko'lab asarlar, ko'plab ilmiy ishlar va darsliklar yozib vatanimiz ravnaqiga hissa qo'shgan. Avloniyning "Birinci muallim", "Ikkinchi muallim" asarlarida yosh kitobxonlar tafakkuriga mos ilm xosiyati, va ilmsizlik oqibati to'g'risida turli pand-nasihatlar keltirilgan. "Maktab gulistoni" dagi she'r va hikoyada ijtimoiy dolzarb muammolar qamrab olgan. Shuningdek, bunday she'rlar orqali yosh avlodni ma'rifatga davat etish etish, kitobxonlarni vatanga muhabbat, o'z yurtiga va millatiga, yurtiga sadoqatli qilib tarbiyalashga asosiy fikr qaratilgan: Kerak tarbiyat yoshlikdan demak, Ulug' bo'lsa, lozim kelur g'am yemak.

Egur bemashaqqat kishi novdani, Tuguncha erur kuydirib. Shoirning 1905-yildan keyingi ijodiga mansub bo'lib, milliy ijtimoiy xarakterdadir. Ayo ey sohibi urfon! Vatan bog'inda faryod et. Otib tashla aroding eski odatlarni barbod et. Maorifla funun tahsilina qil rahnamolig' san, Qorong'uda qolan millatni nuri ilma irshod et. Vatan mehri agar bo'lsa- dilingda ishq savdosi, Otil nuri maorifga o'zingni misli Farhod et! Yuqoridagi fikr Avloniy emas, umuman she'riyatning hos xususiyatlardandir. Biz bu she'r orqali Vatanga muhabbatni, faqatgina millatning ravnaqi emas balki yashashi uchun ilm kerakligi uqtirilgan. Yuqoridagi satr onaga yoki yorga muhabbat haqida emas aksincha, ma'rifatga muhabbat e'tirof etilgan. Abdulla Avloniy darslik tuzishda ham, dars berish davomida ham didaktik prinsiplar asosida amal qilgan. Abdulla Avloniy jadid maktablarini darslik bilan ta'minlashda alohida e'tibor bergan. 1905-1917-yillar orasida o'nga yaqin darsliklar yaratdi. Ushbu alifbo darsligi ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi alifbo qismida harflar 124 o'rgatilgan, ularning so'z o'rniga qarab oladigan shakllari o'rgatiladi. O'qitishni soddaroq harf o'rgatish usulidan boshlab o'rgata boshlagan. Abdulla Avloniy "Birinci muallim" asarini Saidrasul Saidazizovning "Ustodi avval" hamda Munavvarqori Abdurashidxon o'glining «Adibi avval» asarlaridan keyin tilga oladi: «Uchinchi - Birinchi muslim. Bu alifbo 1912-yilda Abdulla Avloniy tomonidan yozilib Toshkentda «Maktab» kutubxonasining xarji bilan bosildi. Muallif alifboni yozatishda bolalarning yosh xususiyatlariga alohida e'tibor berdi, o'qishning eng oson usullarini qo'llashga harakat qildi. Bu haqida A. Avloniy yozadi:» Muhtaram muallim farzandlarimizdan rijo qilurmanki, bizning «Birinci muallim»imizdan ham olub, tajriba qilub, o'qutub korsalar. Chunki, har bir gulning bir isi, har mevaning tami va mazasi bordur. Bu «boy» va tam esa tajriba soliblarina kashf va malim etur.

Shoyad, millat bolalarini foidabaxsh olur umidunda bir necha muallimlarimizning iltijolari ila ko'p vaqt tajriba so'ngidan bu risolai ojizanomani «Birinci muallim» ismi-la maydoni intishora qo'ydim. Maorifparvar muallim birodarlarimiz iltifotsiz qoldirmasalar kerak.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'zbek milliy madaniyatining atoqli namoyandasi A.Avloniy biz uchun ulkan bir maktab yaratib ketgan. Hamda yoshlarni bilim olishi uchun ta'lim o'chogiga asos solgan. Yoshlarni yuqorida ko'rsatilgan usullar yordamida ma'naviy-ma'rifiy ruhda tarbiyalash barkamol avlodni shakllantirishdagi muammolarni bartaraf etishi mumkin. Farzand tarbiyasi hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Farzandlarni tarbiyasi eng avvalo oiladan boshlanadi. Bir bolaga yetti mahalla ota-ona degan maqol ham bejiz emas. A.Avloniy ruhi hali hamon qalbimizda mangu yashaydi.

REFERENCES

1. Zunnunov, A. Pedagogika tarixi. O'quv qo'llamna. Toshkent- 2004.
2. Abdulla Avloniy. Toshkent tongi. Gafur G'ulom nomidagi Adabiyot va sanat nashriyoti. Toshkent-1979.
3. <https://uz.m.wikipedia.org>
4. <https://elib.buxdupi.uz/books/Abdulla%20Avloniy.pdf>